

AYOL QADRI ULUG'LANGAN YURT

MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT DARSİ

AYOL QADRI ULUG'LANGAN YURT
(8-MART – XALQARO XOTIN-QIZLAR KUNI)

Biz erkin va farovon, demokratik, dunyoga ochiq mamlakatni barpo etishda butun xalqimiz qatori xotin-qizlarimiz ham beqiyo's hissa qo'shayotganini albatta yosak qadrlaymiz. ...Oila tayanchi, jamiyat ustuni bo'lgan onalarimiz, ayollarimiz hayotdan rozi bo'lsa, butun xalqimiz hayotdan rozi bo'ladi.

Shavkat MIRZIYOEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Ayol – mehr-muhabbat, sadoqat va fidoyilik timsoli. Yurtimizda ayollar azaldan ulug'lab, hamisha ardoqlab-asrab kelingan. Zotan, har qanday jamiyat va davlatning qay darajada xalqparvar hamda adolatli ekani uning xotin-qizlarga bo'lgan munosabati, g'amxo'rliqi bilan belgilanadi.

So'nggi yillarda xotin-qizlarning og'irini yengil qilish, huquq va manfaatlarini himoyalash, bandligini ta'minlash, opa-singillarimiz o'tasida ishbilarmonlik, tadbirkorlik muhitini kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'naliishlaridan biriga aylandi.

Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining qariyb yarmini tashkil etadigan ayollarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning jamiyatdagagi o'rni va nufuzini oshirish, bandligini ta'minlash, iste'dodi hamda qobiliyatini yuzaga chiqarish, gender tenglikka erishish borasida izchil ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Avvalo, xotin-qizlarni barcha jabhalarda qo'llab-quvvatlashga qaratilgan huquqiy baza yaratildi. Jumladan, ayollar huquqlari himoyasini tubdan kuchaytirish, ularning turmush sharoitini yaxshilash, ta'lim olishi va o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishlari uchun keng imkoniyat yaratishga qaratilgan 4 ta qonun, davlatimiz rahbarining 10 ga yaqin farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining

g'olib chiqqan, umuman, xizmatda va hayotda ulkan muvaffaqiyatlarga erishganlari biyor. Eraklar bilan yelkama-yelka, bir safa turib xizmat qilayotgan ana shunday opa-singillarimiz bilan har qancha faxrlaneak arzyidi.

Xullas, bugun fermerlik harakati deyazimi yoki biznes, ilm-fan, tibbiyot, ta'lim-tarbiya, madaniyat va san'at sohalarini olaizimi, birontasini ayollarning ishtiroykisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagagi roli va nufuzini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar xalqaro miqyosda keng e'tirof etilmoqda. Masalan, Jahon bankining o'tgan yili e'lon qilingan «Ayollar, biznes va qonunu nomli

Ayol – mehr-muhabbat, sadoqat va fidoyilik timsoli. Yurtimizda ayollar azaldan ulug'lab, hamisha ardoqlab-asrab kelingan. Zotan, har qanday jamiyat va davlatning qay darajada xalqparvar hamda adolatli ekani uning xotin-qizlarga bo'lgan munosabati, g'amxo'rliqi bilan belgilanadi.

So'nggi yillarda xotin-qizlarning og'irini yengil qilish, huquq va manfaatlarini himoyalash, bandligini ta'minlash, opa-singillarimiz o'tasida ishbilarmonlik, tadbirkorlik muhitini kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'naliishlaridan biriga aylandi.

Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining qariyb yarmini tashkil etadigan ayollarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning jamiyatdagagi o'rni va nufuzini oshirish, bandligini ta'minlash, iste'dodi hamda qobiliyatini yuzaga chiqarish, gender tenglikka erishish borasida izchil ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Avvalo, xotin-qizlarni barcha jabhalarda qo'llab-quvvatlashga qaratilgan huquqiy baza yaratildi. Jumladan, ayollar huquqlari himoyasini tubdan kuchaytirish, ularning turmush sharoitini yaxshilash, ta'lim olishi va o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishlari uchun keng imkoniyat yaratishga qaratilgan 4 ta qonun, davlatimiz rahbarining 10 ga yaqin farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining

14 ta qarori qabul qilindi. Qator xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilinib, milliy qonunchiligidan asoslari takomillashtirildi. Yangilangan Konstitutsiyamizda esa xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, xotin-qizlar hamda erkaklarga davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va boshqaruv hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlar yaratib berilishi belgilab qo'yildi.

Xuddi shuningdek, xotin-qizlarning siyosiy hayotdagi faolligini oshirishga e'tibor qaratilib, Saylov kodeksiga deputatlikka nomzodlar ko'rsatilayotganda ayollar sonining eng kam miqdorini nomzodlar umumiyligi sonining 30 foizidan 40 foiziga oshirishni nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilgani ham e'tiborga molikdir.

So'nggi yillarda xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etishga qaratilgan ishlar yangi bosqichga ko'tarildi. Birgina «Ayollar daftari» bo'yicha katta miqdordagi mablag'lar ajratilib, minglab xotin-qizlarni qiyab kelayotgan muammolarga barham berilyapti. Minglab opa-singillarimiz mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlargaga, tadbirkorlikka o'qitilmoqda, ularga imtiyozli kreditlar ajratilmoqda.

Ma'rifatparvar bobolarimiz bejiz «Onalarni o'qitsak, millatni o'qitgan bo'lamicha» degan fikr bilan o'zbek ayollarining bilimli, ilmlı bo'lishi yo'lida jon kuydirmagan. Hozirgi kunda qizlarimizning oliy ta'lim olishi, zamonaviy kasb-hunar va texnologiyalarni, xorijiy tillarni egallashiga katta ahamiyat berilmoqda. Boshqacha aytganda, bilim olaman, kasb-hunar egallayman, ilm-fan bilan shug'ullanaman, degan xotin-qizlar uchun keng imkoniyatlar bor. Ularga maxsus kvotalar ajratilgan, shartnomalar to'lovlari davlat byudjetidan qoplanmoqda, imtiyozli kreditlar taqdim etilyapti.

Bunday g'amxo'rlik qizlarimizda bilim olishga bo'lgan rag'batni, kelajakda jamiyatda o'zining munosib o'rnini topishga bo'lgan sa'y-harakatni kuchaytirib yubordi. Agar bundan 6 yil oldin oliy ta'lim muassasalarida 110 ming nafar xotin-qiz tahsil olgan bo'lsa, hozirgi vaqtida bu raqam qariyb 5 barobarga ko'paydi. Bu misli ko'rilmagan natija, albatta. Qolaversa, oxirgi yetti yilda 5 ming nafardan ortiq xotin-qizlar fan doktori (DSc) va o'z sohalari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini muvaffaqiyatli himoya qilgani ham quvonarlidir.

Umuman olganda, hozirgi vaqtida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki kengayib, davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rni va roli tobora oshib bormoqda. Xususan, xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 2017-yildagi 27 foizdan 35 foizga yetgani, ayniqsa, ahamiyatli. Parlament faoliyatida esa ularning ulushi 32 foizga yetdi. Bu Birlashgan Millatlar Tashkiloti tavsiyalariga to'la mos keladi. Shu bilan birga, so'nggi besh yil ichida yurtimizda tadbirkor ayollar safi ikki barobar kengayib, o'z biznesini yo'lga qo'ygan tadbirkor xotin-qizlar soni 205 ming nafardan oshdi.

Boshqa ko'plab sohalardagi kabi, mamlakatimiz ichki ishlar organlarida ham ko'plab fidoyi xotin-qiz xodimalar xizmat qilmoqda. Ular orasida yurt tinchligi va xalq osoyishtaligini ta'minlash yo'lidagi fidokorona xizmatlari tufayli davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlangan, turli xalqaro sport musobaqalarida, nufuzli ko'rik-tanlovlarda g'olib chiqqan, umuman, xizmatda va hayotda ulkan muvaffaqiyatlarga erishganlari bisyor. Erkaklar bilan yelkama-yelka, bir safda turib xizmat qilayotgan ana shunday opa-singillarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi.

Xullas, bugun fermerlik harakati deysizmi yoki biznes, ilm-fan, tibbiyat, ta'lim-tarbiya, madaniyat va san'at sohalarini olasizmi, birontasini ayollarning ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagagi roli va nufuzini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar xalqaro miqyosda keng e'tirof etilmoqda. Masalan, Jahon bankining o'tgan yili e'lon qilingan «Ayollar, biznes va qonun» nomli yillik hisobotida O'zbekiston gender tenglik sohasida dunyodagi eng tez rivojlanayotgan 5 ta mamlakat qatorida qayd etildi. 190 ta davlatdagagi holat 10 ta ko'rsatkich bo'yicha baholangan mazkur indeksda mamlakatimizda, ayniqsa, mehnat munosabatlari va oiladagi zo'ravonlikka qarshi kurash sohasida amalga oshirilgan islohotlar muvaffaqiyatli deb topilgan.

Turli soha va tarmoqlarda fidokorona xizmat qilayotgan ayollarning mehnatini munosib qadrlash davlatimizning doimiy e'tiborida. Mustaqillik yillarida Vatanimiz va xalqimiz oldidagi munosib xizmatlari uchun ayollarimizdan 17 nafari eng oliy mukofot – «O'zbekiston Qahramoni» unvoni bilan taqdirlandi. Qolaversa, 11 nafar ayol fan sohasidagi eng yuksak darajaga, ya'ni akademik unvoniga sazovor bo'lganini, minglab xotin-qizlarimiz davlatimizning faxriy unvon, orden va medallari bilan taqdirlab kelinayotganini el-yurtimizning ularga nisbatan yuksak ehtiromi ifodasi sifatida baholash joiz.

Binobarin, Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, «Qadr ayoldan boshlansa, qadrimiz yanada baland bo'ladi!».

**Kamol OLLOYOROV,
o'z muxbirmiz.**

10/2025-мавзу

АЁЛ ҚАДРИ УЛУҒЛАНГАН ЎРТ

Аёл – меҳр-муҳаббат, садоқат ва фидойилик тимсоли. Ўртимизда аёллар азалдан улуғлаб, ҳамиша ардоқлаб-асраб келинган. Зотан, ҳар қандай жамият ва давлатнинг қай даражада халқпарвар ҳамдаadolатли экани унинг хотин-қизларга бўлган муносабати, ғамхўрлиги билан белгиланади.

Сўнгги йилларда хотин-қизларнинг оғирини енгил қилиш, ҳуқук ва манфаатларини ҳимоялаш, бандлигини таъминлаш, опа-сингилларимиз ўртасида ишбилармонлик, тадбиркорлик муҳитини кучайтириш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айланди.

Бугунги кунда мамлакатимиз аҳолисининг қариб ярмини ташкил этадиган аёлларнинг қонуний ҳуқук ва манфаатларини таъминлаш, уларнинг жамиятдаги ўрни ва нуфузини ошириш, бандлигини таъминлаш, истеъоди ҳамда қобилиятини юзага чиқариш, гендер тенгликка эришиш борасида изчил ишлар амалга ошириб келинмоқда. Аввало, хотин-қизларни барча жабҳаларда қўллаб-қувватлашга қаратилган ҳуқуқий база яратилди. Жумладан, аёллар ҳуқуқлари ҳимоясини тубдан кучайтириш, уларнинг турмуш шароитини яхшилаш, таълим олиши ва ўз салоҳиятини рўёбга чиқаришлари учун кенг имконият яратишга қаратилган 4 та қонун, давлатимиз раҳбарининг 10 га яқин фармон ва қарорлари, Вазирлар Маҳкамасининг

14 та қарори қабул қилинди. Қатор халқаро ҳужжатлар ратификация қилиниб, миллий қонунчилигимиз асослари такомиллаштирилди. Янгилangan Конституциямизда эса хотин-қизлар ва эркаклар тенг ҳуқуқлилиги, хотин-қизлар ҳамда эркакларга давлат ишларини бошқаришда, шунингдек, жамият ва бошқарув ҳаётининг бошқа соҳаларида тенг ҳуқуқ ва имкониятлар яратиб берилиши белгилаб қўйилди.

Худди шунингдек, хотин-қизларнинг сиёсий ҳаётдаги фаоллигини оширишга эътибор қаратилиб, Сайлов кодексига депутатликка номзодлар кўрсатилаётганда аёллар сонининг энг кам миқдорини номзодлар умумий сонининг 30 фоизидан 40 фоизига оширишни назарда тутивчи ўзгартиришлар киритилгани ҳам эътиборга моликдир.

Сўнгги йилларда хотин-қизлар муаммоларини ўрганиш ва ҳал этишга қаратилган ишлар янги босқичга қўтарилилди. Биргина «Аёллар дафтари» бўйича катта миқдордаги маблағлар ажратилиб, минглаб хотин-қизларни қийнаб келаётган муаммоларга барҳам бериляпти. Минглаб опа-сингилларимиз мөҳнат бозорида талаб юқори бўлган касб-

хунарларга, тадбиркорликка ўқитилмоқда, уларга имтиёзли кредитлар ажратилмоқда.

Маърифатпарвар боболаримиз бежиз «Оналарни ўқитсак, миллатни ўқитган бўламиз» деган фикр билан ўзбек аёлларининг билимли, илмли бўлиши йўлида жон куидирмаган. Ҳозирги кунда қизларимизнинг олий таълим олиши, замонавий қасб-ҳунар ва технологияларни, хорижий тилларни эгаллашига катта аҳамият берилмоқда. Бошқача айтганда, билим оламан, қасб-ҳунар эгаллайман, илм-фан билан шуғулланаман, деган хотин-қизлар учун кенг имкониятлар бор. Уларга маҳсус квоталар ажратилган, шартнома тўловлари давлат бюджетидан қопланмоқда, имтиёзли кредитлар тақдим этиляпти.

Бундай ғамхўрлик қизларимизда билим олишга бўлган рағбатни, келажакда жамиятда ўзининг муносиб ўрнини топишга бўлган саъи-ҳаракатни кучайтириб юборди. Агар бундан 6 йил олдин олий таълим муассасаларида 110 минг нафар хотин-қиз таҳсил олган бўлса, ҳозирги вақтда бу рақам қарийб 5 баробарга қўпайди. Бу мисли қўрилмаган натижа, албатта. Қолаверса, охирги етти йилда 5 минг нафардан ортиқ хотин-қизлар фан доктори (ДСс) ва ўз соҳалари бўйича фалсафа доктори (ПхД) илмий даражасини муваффақиятли ҳимоя қилгани ҳам кувонарлидир.

Умуман олганда, ҳозирги вақтда хотин-қизларнинг ижтимоий-сиёсий жараёнлардаги иштироқи кенгайиб, давлат ва жамият бошқарувидаги ўрни ва роли тобора ошиб бормоқда. Хусусан, хотин-қизларнинг давлат бошқарувидаги улуши 2017 йилдаги 27 фоиздан 35 фоизга етгани, айниқса, аҳамиятли. Парламент фаолиятида эса уларнинг улуши 32 фоизга етди. Бу Бирлашган Миллатлар Ташкилоти тавсияларига тўла мос келади. Шу билан бирга, сўнгги беш йил ичida юртимизда тадбиркор аёллар сафи икки баробар кенгайиб, ўз бизнесини йўлга қўйган тадбиркор хотин-қизлар сони 205 минг нафардан ошди.

Бошқа кўплаб соҳалардаги каби, мамлакатимиз ички ишлар органларида ҳам кўплаб фидойи хотин-қиз ходималар хизмат қилмоқда. Улар орасида юрт тинчлиги ва ҳалқ осойишталигини таъминлаш йўлидаги фидокорона хизматлари туфайли давлатимизнинг юксак мукофотлари билан тақдирланган, турли ҳалқаро спорт мусобақаларида, нуфузли қўрик-танловларда ғолиб чиқсан, умуман, хизматда ва ҳаётда улкан муваффақиятларга эришганлари бисёр. Эркаклар билан елкама-елка, бир сафда туриб хизмат қилаётган ана шундай опа-сингилларимиз билан ҳар қанча фахрлансак арзийди.

Хуллас, бугун фермерлик ҳаракати дейсизми ёки бизнес, илм-фан, тиббиёт, таълим-тарбия, маданият ва санъат соҳаларини

оласизми, биронтасини аёлларнинг иштирокисиз тасаввур этиб бўлмайди.

Мамлакатимизда хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг жамиятдаги роли ва нуфузини ошириш бўйича амалга оширилаётган ишлар халқаро миқёсда кенг эътироф этилмоқда. Масалан, Жаҳон банкининг ўтган йили эълон қилинган «Аёллар, бизнес ва қонун» номли йиллик ҳисоботида Ўзбекистон гендер тенглик соҳасида дунёдаги энг тез ривожланаётган 5 та мамлакат қаторида қайд этилди. 190 та давлатдаги ҳолат 10 та кўрсаткич бўйича баҳоланганд мазкур индексда мамлакатимизда, айниқса, меҳнат муносабатлари ва оиласидаги зўравонликка қарши кураш соҳасида амалга оширилган ислоҳотлар муваффақиятли деб топилган.

Турли соҳа ва тармоқларда фидокорона хизмат қилаётган аёлларнинг меҳнатини муносиб қадрлаш давлатимизнинг доимий эътиборида. Мустақиллик йилларида Ватанимиз ва халқимиз олдидағи муносиб хизматлари учун аёлларимиздан 17 нафари энг олий мукофот – «Ўзбекистон Қаҳрамони» унвони билан тақдирланди. Қолаверса, 11 нафар аёл фан соҳасидаги энг юксак даражага, яъни академик унвонига сазовор бўлганини, минглаб хотин-қизларимиз давлатимизнинг фахрий унвон, орден ва медаллари билан тақдирлаб келинаётганини эл-юритимизнинг уларга нисбатан юксак эҳтироми ифодаси сифатида баҳолаш жоиз.

Бинобарин, Президентимиз таъбири билан айтганда, «Қадр аёлдан бошланса, қадримиз янада баланд бўлади!».

**Камол ОЛЛОЁРОВ,
ўз мухбирмиз.**